

**MAKTABGACHA 6-7 YOSHDAGI BOLALARGA AXLOQIY TARBIYA BERISH
METODLARI.**

Usmonova Nargiza Raximjonovna

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berish orqali, tarbiyalanuvchilarning axloqiy sifatlarini shakllantirish maqsadida turli metodlardan foydalanib, ta'limning uzviy davom etishiga asoslangan fikr va mlohazalar keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: Axloq, moral, axloqiy tarbiya, axloq tushunchalari, axloqiy tamoyillar, axloqiy ideyal, axloqiy meyorlar, axloqiy kategoriya

O'sib borayotgan shaxsni rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash zamonaviy jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Insonning asl mohiyatidan begonalashuvini bartaraf etish, jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida ma'naviy barkamol shaxsning shakllanishi o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Bu odamlardan sa'y-harakatlarni talab qiladi va bu sa'y-harakatlar moddiy imkoniyatlarni, ob'ektiv ijtimoiy sharoitlarni yaratishga, shuningdek, har bir tarixiy bosqichda ochiladigan shaxsni ma'naviy-axloqiy yuksaltirish uchun yangi imkoniyatlarni amalga oshirishga qaratilgan. Shaxsning shaxs sifatida kamol topishi uchun real imkoniyat jamiyatning moddiy va ma'naviy resurslari yig'indisi bilan ta'minlanadi. Biroq, ob'ektiv sharoitlarning mavjudligi o'z-o'zidan rivojlangan shaxsni shakllantirish muammosini hali hal qilmaydi. Bilimga asoslangan va shaxs rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlarini hisobga olgan holda tizimli ta'lim jarayonini tashkil etish zarur, bu esa ushbu rivojlanishning zarur va universal shakli bo'lib xizmat qiladi. Bugun O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiya qilish davlat ta'lim siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. 2020-yil 23-sentayabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan¹¹. "Ta'lim to'g'ridagi qonun" ni imzoladi. Qonun maktabgacha ta'lim va tarbiyani bolalarni o'qitish va tarbiya qilish, ularni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish hamda umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'limning bir qismi sifatida belgilaydi. Yurtimizda yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs qilib tarbiyalash bugun uchun ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni ta'lim tizimining eng kichik bo'g'i'ni bo'lmish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Yurtimizda bu borada qator qarorlar farmonlar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.03.2021-yildagi PQ-5040 sonli "Manaviy-ma'rifiy ishlar tizimini

¹¹ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 637-son

tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi " qarori ¹² da maktabgacha ta'lim umumiy o'rta , o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringini olib boris, aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Axloq-ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismoniy yetuklikning mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Axloq –shaxs yoki guruh faoliyatining baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlarni tarkibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash. Axloq jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari ifodalanadigan maqsadlarni ilgari suradi.

Axloq tushunchalari umumiy xarakterga ega, ular alohida munosabatlarni emas balki hamma sohadagi munosabatlarni qamrab oladi. Bunday tushunchalar **axloqiy kategoriya** deb ataladi.

Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o'zida birlashtirgan shaxs tavsifi **axloqiy tamoyillar** deb ataladi. Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o'zlariga odamlar orasidan namuna tanlaydi. Bu **axloqiy ideyal** deb ataladi. Axloqning asosiy qirralari (**tamoyillari**) – birdamlik (shaxsiy manfaatlarning umimiylilikning yuqori ko'rinishi sifatidagi ijtimoiylikka bo'ysundirilishi) va insonparvarlik (shaxsga o'z-o'zicha qadriyat va yakuniy maqsad sifatida munosabatda bo'lish). Axloqiy ongning o'ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n qadr qimmat kabilarni keltirib o'tish mumkin. Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib, axloqning jamiyat a'zolarining faoliyatiga yo'nalganligi va uni boshqarilishi ma'nosida , faoliyatni tavsifini ko'rsatib o'tish to'g'ri bo'ladi. **Axloqiy meyorlar** har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'lsa olishiga intilgan kishilik jamiyatning ko'p asrlik tajribasi natijasidir. Insoniyat hamisha eng muhim maqsadlardan biri sifatida kishilarning hamkorlikdagi yashashida uyg'unlikka intilib kelgan. Axloq meyorlari insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash ezgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan. Axloq me'yor va qadriyatlardan iborat. **Me'yor**- bir turdagi xulq-atvor takrorlanadigan vaziyat, talab, standart, taqlid uchun misol, ijtimoiy fikr, did, qoida, urf-odat shaklidagi namuna. Me'yorlar ajdodlarning katta ijobiy ahamiyatga ega tajribasini o'zida mujassamlaydi, zero ularda u yoki bu xulq-atvorning ko'plab avlodlar tajribasida sinalgan maqsadga muvofiqligi aks etadi. **Qadriyatlar**-ijtimoiy munosabatlar va jamiyat a'zolarining ijtimoiy ahamiyatli fazilatlarini. Qadriyatlar xilma-xil tasnifga ega bo'lib, eng umumiy tarzda mutloq va

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040-son

nisbiy qadriyatlar farqlanadi. Absolyut qadriyatlar ya'ni umumahamiyatli tavsifga ega bo'lib ular o'zida shubhasiz asoslangan istalgan nuqtayi nazardan turlicha munosabatlar va barcha subyekt uchun ijobiy xususiyatga ega. Ulardan tashqari, nisbiy ijobiy qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular faqat qandaydir munosabat bilan yoki ma'lum bir subyektlar uchungina ijobiy tavsifga ega bo'ladi. Axloq va axloqiy tarbiyaga oid masalalarga bag'ishlangan dastlabki ta'lim- tarbiyaviy g'oyalar Muqaddas kitobimiz "Qur'oni –Karim" , Hadisu-sharifda, Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" da hamda Sharq va Garb mutafakkirlarining ilmiy pedagogik asarlarida o'z aksini topgan. Muqaddas kitobimiz "Qur'oni Karim"da va payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomning hadislarida insoniy axloq-odobning barcha qirralari o'z ifodasini topgan. Quyidagi hadislarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin: "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar", "Men barcha yaxshi axloqni takomillashtirish uchun yuborilganman", "Mo'min kishida quyidagi ikki xislat bo'lmasligi kerak: baxillik va axloqsizlik".

Ota –bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlari ifoda etgan yodgorliklar orasida Xorazm vohasi hududida yaratilgan bebaho ma'naviy obida "Avesto" kitobi alohida o'rin tutadi. Ana shunday o'lmas asori-atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi. "Avesto" ning tub ma'nomohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ibrat bo'ladigan axloqiy saboqlar borligini ko'rish mumkin. Demokrit, Arastu, Abu Nasr Farobiy, Abu Bakr ar-Roziy, Husayn Koshifiy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy va boshqa allomalarimizning asarlarida ular ijodidagi odob-axloq masalasi markaziy o'rinni egallab kelgan. Ular axloq-odobni jamiyatning "poydevori" deganlar. Shuning uchun jamiyatning har bir a'zosining xulqi-odobiga alohida e'tibor bilan qaralgan, axloq va axloqiy tarbiyaga oif fikrlar insonlardagi yaxshi va yomon xulqlar ilmiy jihatdan to'g'ri asoslab berilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlilidan ma'lumki, so'nggi yillarda axloq va axloqiy tarbiyaga oid muammolarni hal qilish bo'yicha ko'pgina olimlar izlanishlar olib bordi. Jumladan Sharq va G'arb allomalarining axloq va axloqiy tarbiyaga oib yirik durdona asarlarida ilmiy falsafiy fikrlarning yoritilishi :

Demokrit (mil. Av 450-370 y) qarashlarini olib ko'raylik. U donishmandlikni eng yuksak fazilat, aqlni esa axloqiy xatti-harakatning mezoni deb biladi va donishmandni axloqli, nodonni axloqsiz odam sifatida ta'riflaydi. Demokritning fikriga ko'ra, inson uchun hayotdagi birinchi ustoz ehtiyoj va tajribadir. Aynan shular insonni foydali va zararli narsalarni farqlash darajasiga olib keladi.

Arastu (yun Aristotelos, mil, avv 384-322y y) birinchi bo'lib axloqshunoslikni ruhshunoslik bilan siyosatshunoslik oralig'idagi alohida falsafiy fan sifatida taqdim etdi va unga (keyinchalik Ovro'pada qabul qilingan) "Etika" deb nom berdi. Arastuning axloqiy qarashlari, asosan o'g'liga bag'ishlangan "Nikomaxning axloq kitobi" va

“Evdemning axloq kitobi” hamda “ Katta axloq kitobi” risolalarida o‘z aksini topgan. Arastu Qadimgi Yunon mutafakkirlari ichida birinchi bo‘lib **ixtiyor erkinligi** axloqning asosi sifatida olib qaraydi va axloqiy fazilatni kasb etiladigan (hosil qilinadigan) sifat ekanini aytadi.

Abu nasr al-Farobiy (870-950) fikr qilishicha, insonga uni go‘zal a‘mollar qilish uchun yo‘naltiradigan odat mahsuli bo‘lmish yetuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-harakatlarda me‘yor qay darajada saqlangani bilan baholanadi. Odobni esa mutafakkir badavlatning davlatini bezaydigan va kambag‘alning kambag‘alligini o‘g‘irlyadigan axloqiy hodisa sifatida ta‘riflaydi.

O‘rta asrlar axloqshunosligida raylik (eronlik) mutafakkir **Abu Bakr ar-Roziy** (865-925) ta‘limoti o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning axloqiy qarashlari “Lazzat”, “Falsafiy hayot tarzi”, “Ruhiy tabobat”, “Baxt va farovonlik belgilari” singari kitoblarda aks etgan. Ar-roziy axloqshunoslikni insonda xushxulqlikni tarbiyalash va badxulqlikni yo‘qotish yo‘llari hamda usullari haqidagi fan deb biladi; u kishini aql bilan ish ko‘rishga, meyorida lazzatlanishga, o‘z ehtirolarini jilovlab, lahzalik lazzatga umrini baxsh etmaslikka o‘rgatadi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) axloqiy qarashlari asosan “Axloq ilmiga doir risola”, “Burch to‘g‘risida risola”, “ Nafsni pokiza tutish to‘g‘risida risola”, “Adolat haqida kitob”, “Turar joylardagi tadbirlar” singari asarlarida va zamondoshlari bilan olib borgan munozara-yozishmalarda o‘z aksini topgan.

Husayn Koshifiyning (1436-1504) “Axloqi Muhsiniy “ asari shaxsiy, oilaviy va fuqorolik axloq asoslarini o‘z ichiga olgan. U 40-bobdan iborat. Muallif asarda adolat, sabr, yoqimlilik, hayo, odob, ishonch, vadaga vafo qilish masalalari haqida so‘z yuritadi.

Jaloliddin Davoniyning (1427-1502) “Axloqi Jaloliy” asarida axloqiy muammolar , ijtimoiy-falsafiy masalalar tahlil qilinadi. Asarni yozishda muallif Arastu, Aflotun, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sinolarning axloqiy ta‘limotlaridan foydalanga. Risola uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida xulqiy tarbiya va axloqiy xislatlarni egalash haqida so‘z yuritib , axloqning asosiy tushunchalari :donolik, adolat, iffatga mufassal to‘xtalgan , axloq ilmining maqsad va vazifalari belgilab berilgan. Ikkinchi qism oila va oilaviy hayot masalalariga bag‘ishlangan. Unda bolalarni tarbiyalash va kamolga yetkazish, kasb-hunarni egallash yoritiladi. Uchinchi qism ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan.

Buyuk mutaffakkir Xazrat Mir **Alisher Navoiy**(1441-1501) “ Mahbub ul-qulub” asarida ayniqsa Temuriylar davri axloqshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Uch qismdan iborat bu asarda nafaqat tasavvuf axloqshunosligi va axloqning, balki butun musulmon Sharqi axloq ilmining nazariy muammolari ko‘tariladi. Shuninhdek, u pandnoma sifatida ham diqqatga sazovor.

Abdulla-Avloniy (1887-1934) uning XX-asr boshlarida Turkistonda mashhur bo‘lgan “Turkiy guliston yohud axloq” (1913) asari axloqiy muammolarga jadidchilik nuqtayi nazaridan yondashishi, ko‘pchilikka tushunarli tilda yozilgani bilan ajralib

turadi. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida an’anaviy-falsafiy yondashuv bo’lmish antropologik nuqtayi nazar bo’rtib ko’zga tashlandi. Ammo bu yondashuvning yangilangan mohiyati shunda ediki, tadqiqot obyekti sifatida makon va zamondagi umumiy mavhumiy inson emas, balki muayyan, XX asr boshlaridagi, milliy ozodlikka, yangicha hayot tarziga intilishni o’z oldiga niyat qilib qo’ygan Turkiston fuqorosi olinadi. Ana shu yangi inson tarbiyasi bosh masala tarzida o’rtaga tashlanadi. Avloniy tarbiyani, qadimgilar va O’rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari an’analariga suyanib, uchga bo’ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Shular orasidan axloq tarbiyasiga alohida urg’u berib, uni “insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi” tarbiya deb baholaydi.¹³ Fazilatlarni faylasuf-pedagog yaxshu xulqlar, illatlarni esa-yomon xulqlar deb ataydi. Fatonat, diyonat, sharaf, hayo singari musulmon Sharqi uchun an’anaviy bo’lgan fazilatlar sharhi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni sevmak singari Turkiston mintaqasi uchun yangi talqinda taqdim etilgan fazilatlar haqida alohida to’xtaladi. Vatanni suymoq lozim bo’lsa, uning yo’lida jonni fido etmoq yuksak axloqiy insonga xos fazilatdir.

Axloq so’zi – lotincha «**moros**», ya’ni **moral**, **mantiq** so’zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat’iy yozib qo’yilmagan ijtimoiy qonundir. Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo’ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o’zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o’zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi.

Axloq (arabcha –olingan bo’lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuini, fe’lini, tabiyatini anglatadigan **xulq** so’zining ko’plik shaklidir) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo’lsak, doiraning eng kichik-qismini odob, undan kattaroq qismini –xulq, eng qamrovli qismini –axloq egallaydi.

Odob-inson haqida yoqimli taasurot uyg’otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo’lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o’z ichiga oladi.

Xulq-oila, jamoa, mahalla-ko’y miqyosida ahamiyatli bo’lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta’sir ko’rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq-jamiyat, zamon, ba’zan insoniyat tarixi uchun namuna bo’la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy xatti-harakatlar yig’ihdisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa.

Axloqiy tarbiya-yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o’zaro bog’liq vazifani shart qilib qo’yadi: birinchidan, jamiyat ongida me’yorlar, tamoyillar, ideyallar, adolat,

¹³ A.Sher.” Axloqshunoslik”, O ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 y

ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko‘rinishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o‘z xatti-harakatlarini yo‘naltirish va nazorat qila olishi, shuningdek, ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi yana boshqa kishilarga talab qo‘ya bilishi va ularning xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog‘liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e‘tiqod ma‘naviy moyilliklar, his-tuyg‘ular, odatlar barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo‘lgan axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. U yoki bu jamiyatda axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda turli metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda quyidagicha tasniflanadi.

1) Axloqiy ongni shakllantirish metodlari: hikoya, tushuntirish, estetik suhbat, izohlash, nasixat, o‘g‘it, ko‘rsatma, namuna va boshqalar.

2) Axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari: mashq, o‘rgatish, pedagogic talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hokazolar.

1) Axloqiy motivatsiyani hosil qilishga doir metodlar: rag‘batlantirish, tanbeh berish, koyish, maqtash, taqdirlash, tergash, uyaltirish, tahsinlash, va boshqalar.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan pedagog va tarbiyachilar ta‘lim tarbiya jarayonida maktabgacha ta‘lim tashkilotiga muqaddas poyqadamlarini qo‘yib kelgan kundan boshlab tarbiyalanuvchilarga tarbiyaviy tadbirlarni aniq maqsad asosida olib borishlari lozim. Tarbiyalanuvchilarga ta‘lim tarbiya berishda albatta axloqiy tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Axloqiy tarbiya berishda axloqiy tarbiya metodlaridan axloqiy ongni shakllantiruvchi, axloqiy xulq-atvorni shakllantiruvchi, axloqiy motivatsiyani xosil qiluvchi metodlar yaxshi samara beradi. Zero, o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llangan metodning ta‘sir doirasi kengroq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent.: Sano Standart, 2017-yil.

2 Ro‘ziyeva .D.I Tolipov .O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent.: Innovatsiya-Ziyo. 2019-yil.

3 Yuzlikayeva E, Axmedova M, Qurbonova S, SH Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik . Toshkent. TDPU, 2012-yil.

4 Pedagogika .M Toxtaxodjayevning umumiy tahriri ostida .Darslik. Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati. 2010-yil

5 O‘ Asqarova, M. Xayitboyev, M. Nishonov. Pedagogika . Darslik Toshkent “ Talqin” 2008-yil.

6 Z.Nishonova . Rivojlanish va ta’lim psixologiyasi.Darslik. Toshkent.2019-yil.

7 A.Sher.” Axloqshunoslik” , O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 y

8.F.Qodirova Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.

¹ Ozbekiston Respublikasining Ta’lim to’g’risidagi qonuni 637-son

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040-son